Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlarini	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari	1135
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirish	1146
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINING AMAL QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ichki imkoniyatlari ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategik ko'rsatkichlariga erishishda Farg'ona mintaqasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgan. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, Farg'ona mintaqasi, oziq-ovqat bozori, qishloq xo'jaligi, strategik ko'rsatkichlar, dastur, bosqich, ichki bozor, ixtisoslashuv.

Abstract: The article reveals the domestic potential of food production. A set of measures to be implemented in the Fergana region to achieve the strategic indicators of agricultural development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030 has been developed. Scientific proposals and practical recommendations aimed at improving the regional food market are given.

Key words: region, Fergana region, food market, agriculture, strategic indicators, program, stage, domestic market, specialization.

Аннотация: В статье раскрывается внутренний потенциал производства продуктов питания. Разработан комплекс мер, которые будут реализованы в Ферганской области для достижения стратегических показателей развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы. Даны научные предложения и практические рекомендации, направленные на совершенствование регионального продовольственного рынка.

Ключевые слова: регион, Ферганская область, продовольственный рынок, сельское хозяйство, стратегические показатели, программа, этап, внутренний рынок, специализация.

KIRISH

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining istiqboldagi rivojlanishi bugungi kun iqtisodiyotida va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan chuqur sifati o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan: mintaqadagi demografik vaziyatning o'zgarishi, viloyatlarning transport mintaqaviy o'rni, yer resurslari va ulardan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalanish darajasi, aholi ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etish, ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish holati, ichki va tashqi bozordagi ishtirok etish ko'rsatkichlari, milliy iqtisodiyot majmuasini intensivlash jarayoni va boshqalardir. Yuqoridagi jarayonlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga kuchli ta'sir etadi va oziq-ovqat bozorini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Jumladan, keyingi yillarda Farg'ona mintaqasi oziq-ovqat bozorining rivojlanishida miqdor va sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu jarayon mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini mutlaqo o'zgartirib yubordi. Bunday o'zgarishlar, avvalo, tabiiy resurslarni o'zlashtirish, qishloq xo'jaligi iqtisoslashuv darajasining ortishi, sertarmoq sanoatning rivojlanishi, yangi iqtisodiy markazlarning shakllanishi, intellektual potentsialning kuchayishidir. Xuddi shu holat Farg'ona mintaqasida oziq-ovqat bozorini takomillashtirish uchun sharoit yaratadigan yangi iqtisodiy makonni shakllantirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasidan kelib chiqmoqda va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barqarorligi muhim masala bo'lganligi sababli, qator xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar bu borada tadqiqot o'tkazishgan.



Mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarini o'rganish bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga katta e'tibor qaratgan. J. Smith va A. Jones mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarida talab va taklifning muvozanatini saqlash muhimligini ta'kidlab, bu holatni bozorda barqaror narxlarni ta'minlash uchun zarurligini qayd etadi¹. R. Brown esa oziq-ovqat bozorlarining amal qilish mexanizmlarini yanada rivojlantirish uchun bozor islohotlarining muhimligini ko'rsatadi. Ushbu islohotlar bozorning samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaydi².

O'zbekistonda oziq-ovqat bozorini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va tadbirlar qatoriga bozor islohotlari, subsidiyalari va eksport-import cheklovlarini o'z ichiga oladi. O. Abdurahmonov O'zbekistondagi oziq-ovqat bozorining hozirgi holatini tahlil qilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan islohotlar samarasini ko'rsatadi³. Qosimov (2021) esa, bozor mexanizmlarini takomillashtirishda mahalliy sharoitlar va iqlim omillarini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. U shuningdek, mintaqaviy oziq-ovqat zanjirlarining rolini kuchaytirish yo'llarini taklif etadi⁴.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farg'ona mintaqasida oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va uning hayotiy bo'lishi mintaqalar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mintaqalar iqtisodiyoti tabiiy-tarixiy yaxlit o'lkadagi o'zaro bog'liq va o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, mavjud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish hamda ekologik muammolarni bartaraf etish va hududda mehnat taqsimotini chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi. Mintaqalar iqtisodiyoti yuqori samarali ishlab chiqarish tizimini yaratish va uning tarraqqiyotini uzluksiz rivojlantirishni ta'minlash bilan birgalikda har bir mintaqaga uchun mos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni olib borish uchun ham zarur imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, Farg'ona mintaqasida ishlab chiqarish hajmining ortib borishi, tarmoqlararo aloqalarning rivojlanishi, intensiv omillar rolining kengayishi asosida mintaqalararo aloqalarga bo'lgan talab kuchayadi. Chunki mintaqaning jahon xo'jaligidagi ishtiroki navbatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari uchun yo'l ochadi. Bunda asosiy e'tiborni bozor raqobatiga moslashuvchan xo'jalik tarkibini takomillashtirishga qaratish lozim.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan edi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli⁵ Farmoni qabul qilindi va quyidagilar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi [1]:

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;
- yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini yaratish;

1 Smith, J., & Jones, A. (2020). *Regional Food Markets and Economic Stability*. Journal of Agricultural Economics, 45(3), 112-134.

2 Brown, R. (2019). *Food Security and Market Mechanisms in Developing Countries*. Food Policy Journal, 36(1), 67-89.

3 Abdurahmonov, O. (2022). *O'zbekistonning Oziq-ovqat Bozorlarini Rivojlantirish Siyosati*. O'zbek Iqtisodiy Tadqiqotlari, 12(2), 56-74.

4 Qosimov, A. (2021). *O'zbekistonning Mintaqaviy Oziq-ovqat Zanjirlari va Ularning Takomillashtirilishi*. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 34(1), 89-104.

5 lex.uz/docs/-4567334



- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
- qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish va boshqalardir.
- Ushbu Strategiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutilgan[1]:
- 1,1 mln gektar qishloq xo'jaligi yerlari o'zlashtiriladi, 535,6 ming gektar lalmi, yaylov va boshqa yerlardan foydalanish samaradorligi ortadi;
- hududlar ixtisoslashtiriladi, bir joyda bir xil mahsulotlarni yetishtirish, agroinnovatsion g'oyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga sharoit yaratiladi;
- paxta xomashyosi va boshqaliq don yetishtirishda davlatning ishtirokidan bosqichma-bosqich voz kechiladi, paxta xomashyosi va boshqaliq don mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan qabul qiluvchilar o'rtasida mahsulot hajmiga qarab shartnoma tuzish tizimi yo'lga qo'yiladi;
- sifatli raqobatbardosh meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish, saqlash, chuqur qayta ishlash va eksport o'sishi barqarorligini ta'minlashga erishiladi;
- boshqaliq donni birja savdolarida cheklovlarisiz sotilishiga imkon yaratiladi, davlat xaridlari kamaytiriladi, boshqaliq don bozorida intervension mexanizmlar joriy etiladi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qo'shimcha 3,4 mln tonna quvvat yaratiladi, mahsulotlarni qayta ishlash ko'rsatkichi 30 foizga yetkaziladi.

Ushbu strategik ko'rsatkichlarga erishishda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish barqarorligi, xo'jalik ixtisoslashuvi va istiqbolda ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga olish muhim o'rin tutadi. Shunga muvofiq Farg'ona mintaqasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni quyidagi chora-tadbirlar asosida amalga oshirish lozim bo'ladi:

- Andijon viloyatida birinchidan, lalmikor dehqonchilik, sholi, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot va polizchilikni rivojlantirish, ikkinchidan, intensiv taraqqiyotga asoslangan xo'jalik tizimini yuzaga keltirish, uchinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning doimiy yuqorilab boruvchi yo'nalishlarini ishlab chiqish, to'rtinchidan, tabaqalashgan "tekislik", "tog'oldi", "tog'" ishlab chiqarish tizimini yaratish, beshinchidan, moddiy-texnik va intellektual potensialni xorijiy ilg'or tajribalar bilan boyitib borish amaliy ahamiyat kasb etadi;
- Namangan viloyatida, birinchidan, qishloq xo'jaligining agroiklimiy xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda samarali yo'nalishlarni belgilash, ikkinchidan, adir va tog'oldi mintaqalarida (Chortoq, Yangiqo'rg'on, Chust, Kosonsoy) "oziq-ovqat kombinati", tekislik mintaqasida (Uchqo'rg'on, Norin, Mingbuloq) xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar, shahar atrofi mintaqasida (To'raqo'rg'on, Namangan, Uychi) chorvachilik yo'nalishidagi tarmoqlarini rivojlantirish, uchinchidan, qishloq xo'jaligi xomashyo bazasida oziq-ovqat sanoatini joylashtirish maqsadga muvofiq;
- Farg'ona viloyatida oziq-ovqat bozorining istiqbolda rivojlanishi, birinchidan, ixtisoslashgan qishloq xo'jalik mintaqalarini shakllantirish negizida bog'dorchilik, sabzavot va kartoshkachilikni tashkil etish, ikkinchidan, Quvasoy ixtisoslashgan agromintaqasining barqaror rivojlanishini taminlash, uchinchidan, qishloq xo'jaligini sanoat tarmoqlari bilan uyg'unlashgan holda rivojlantirish, to'rtinchidan, chorvachilik tarmog'ida ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, beshinchidan, xalqaro bozoridagi raqobatga chidamli oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini rivojlantirish, oltinchidan, barcha xo'jalik tarmoqlarining majmuali rivojlanishini ta'minlash negizida mintaqalar uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish bilan bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategik ko'rsatkichlariga erishishda va Farg'ona mintaqasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasida uch bosqichdan iborat dasturlar ishlab chiqish dolzarflik kasb etadi. Bunda har bir bosqich keyingi bosqich uchun zamin hozirlashi va oziq-ovqat bozorini takomillashtirishning umumiy yo'nalishlarini asta-sekin uyg'unlashtirib borishi uchun xizmat qilishi lozim.

Demak, yaqin istiqbolga mo'ljallangan dasturlarning birinchi bosqichida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olish, yuzaga kelgan muammolarning kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida oziq-ovqat bozorini takomillashtirishning umumiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa Farg'ona mintaqasi uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etgan yo'nalishlarni ro'yobga chiqarishga, birmuncha murakkab "ajralgan" xo'jalik tizimini yaqinlashtirishga sharoit yaratadi va ikkinchi bosqichdagi muhim o'zgarishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqichda mintaqalarning ichki bozorda tutgan o'rni, xo'jalik ixtisoslashuvi, mintaqalararo kooperasiya aloqalaridagi ishtiroki, mavjud mahalliy resurslardan foydalanishi, qo'shilgan qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol darajasini hisobga olish, agrosanoat ishlab chiqarishdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, mintaqaning tashqi bozordagi faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat sanoatining samarali tarmoq



tarkibini vujudga keltirish, aholining keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning oqilona yo'llarini belgilash zaruriyati paydo bo'ladi. Bu bosqichda mintaqalararo ishlab chiqarish kuchlarining o'zaro uyg'unlashgan shaklini yaratish imkoniyatlari yuzaga keladi. Yangi xo'jalik sharoitida shakllanadigan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishning o'zaro manfaatli mexanizmi yaratiladi, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada rivojlantirishning bir muncha yuqori bo'lgan uchinchi bosqichi uchun yo'l ochadi.

Uchinchi bosqich ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va intellektual resurslar bilan mintaq imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro savdo aloqalarining samarali shakllarini vujudga keltirish va chet elga kapital chiqarish, mintaqaviy oziq-ovqat bozorini to'liq amal qilishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda mutlaqo yangi sifat o'zgarishlari davri ekanligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda bozor munosabatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi, iqtisodiyot tarmoqlari bozor talablari asosida shakllanadi va "depressiv mintaq" tushunchalari barham topadi.

Barcha bosqichlarda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, oziq-ovqat bozorini boshqarish davlat himoyasiga asoslanadi va u iqtisodiy vositalar yordamida rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, davlatning innovatsion siyosatiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olish talab etiladi.

Umuman olganda, oziq-ovqat bozorini takomillashtirish tashkiliy-iqtisodiy yangilanishdan iborat bo'lgan chora-tadbirlar va innovatsion strategiyalarni amalga oshirish kabi bir qator murakkab jarayonlardan iborat. Bu esa, Farg'ona vodiysi mintaqalarida uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va aholining yuqori darajadagi turmush darajasini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorini takomillashtirish yo'nalishlari asosiga iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tamoyillari qo'yilishi lozim. Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning tamoyillari ichki ishlab chiqarishi hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish va mintaqaviy mehnat taqsimotini chuqurlashtirishdan iboratdir.

Farg'ona mintaqasida oziq-ovqat bozorini takomillashtirish ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan:

ishlab chiqarish salohiyatining mavjudligi va undan foydalanish darajasi; oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zonalarini iste'mol mintaqalari bilan oqilona qo'shib olib borish;

oziq-ovqat ishlab chiqarish va iste'molning tarkibida sifat o'zgarishlari; ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish va yangi hududlarni o'zlashtirish imkoniyati; oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda majmuaviylik;

shaxsiy va ishlab chiqarish iste'molida oziq-ovqat mahsulotlarining bir turi bilan boshqalarini almashtirish imkoniyati;

ishlab chiqarish texnologiyasidagi o'zgarishlar va moddiy resurslarning yangi ilg'or turlarining joriy etishi;

transport tarmog'ining o'zgarayotgan oziq-ovqat bozori faoliyatiga monand tarzda o'zgarishi; aholi turmush darajasining o'sishi kabilardir.

Ushbu omillar ta'siri ostida oziq-ovqat bozorida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, alohida hududlar o'rtasida muntazam ayirboshlashning sharoitlari o'zgaradi, bozor munosabatlarning barqarorligi muayyan darajasi qaror topadi, ishlab chiqarish ixtisoslashadi. Aks holda qishloq xo'jaligi xom ashyosidan foydalanish, oziq-ovqat sanoatini joylashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ortiqcha ravishda uzoqqa tashish, mintaqalarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan oqilona ravishda o'zini o'zi ta'minlashda nomutanosisibliklar vujudga keladi.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi tarmoqlari va oziq-ovqat sanoatini joylashtirishda aholi zichligi, tabiiy-iqtisodiy sharoitlar va alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishning to'planganligini hisobga olish lozim. Bu esa mintaqalararo ayirboshlash hisobiga zarur miqdorda mahsulot ishlab chiqarish lozimligini bildiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Farg'ona mintaqasi viloyatlarini bir-biridan ajratgan holda ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari chegaralangan va ilmiy jihatdan asoslanmagan bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев О. Минтақалар ва мамлакатлар иқтисодиёти. Монография.-Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 312 б.
2. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1992. – С. 35.
3. Smith, J., & Jones, A. (2020). Regional Food Markets and Economic Stability. *Journal of Agricultural Economics*, 45(3), 112-134.
4. Brown, R. (2019). Food Security and Market Mechanisms in Developing Countries. *Food Policy Journal*, 36(1), 67-89.
5. Abdurahmonov, O. (2022). O'zbekistonning Oziq-ovqat Bozorlarini Rivojlantirish Siyosati. O'zbek iqtisodiy tadqiqotlari, 12(2), 56-74.
6. Qosimov, A. (2021). O'zbekistonning Mintaqaviy oziq-ovqat zanjirlari va ularning takomillashtirilishi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 34(1), 89-104.
7. Вахабов А.В., Таджибаева Д.А., Хажибакиев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма/А.В.Вахабовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Молия, 2011. - Б. 398-411.



8. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2005. – 280 с.
9. Socio-Economic Significance and Functions of the Food Market// Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. № 10. – pp. 63-71. <https://economics.academicjournal.io>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сонли Фармони. lex.uz

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.